

## **“BOLA” ETALONLI AYRIM O‘XSHATISHLARNING SEMANTIK TAHLILI**

Nurdinbayeva Nargizaxon Maxammadjon qizi  
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Gmail: [nnurdinbayeva@gmail.com](mailto:nnurdinbayeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “bola” etalonli o‘xshatishlarning semantik tahlili yoritilgan. “Bola” etalonli o‘xshatishlar o‘zida milliy-madaniy konnotatsiya aks etadi. Ushbu o‘xshatishlarning aksariyati yozuvchilarning badiiy topilmasi hisoblangan erkin (individual) o‘xshatishlar tipiga kiradi. Badiiy matnda yozuvchi o‘zining his-tuyg‘u va maqsadlarini ifodalash uchun erkin o‘xshatishlarni yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** antropotsentrik tilshunoslik, o‘xshatish, bola, etalon, erkin o‘xshatish, shaxsiy munosabat.

## **СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ СРАВНЕНИЙ СО ЭТАЛОНОМ “РЕБЕНОК”**

Нурдинбаева Наргиза Махаммаджон қизи  
Докторант Наманганского государственного университета

Gmail: [nnurdinbayeva@gmail.com](mailto:nnurdinbayeva@gmail.com)

**Аннотация:** В статье рассматривается семантический анализ сравнений с «детским» эталоном. Сравнения с «детским» эталоном отражают национально-культурную коннотацию. Большинство таких сравнений относятся к типу свободных (индивидуальных) сравнений, которые считаются художественным изобретением писателей. В художественном тексте писатель создает свободные сравнения для выражения своих чувств и целей.

**Ключевые слова:** антропоцентрическая лингвистика, аналогия, ребенок, эталон, свободная аналогия, личностные отношения.

## **SEMANTIC ANALYSIS OF SOME SIMILES WITH THE “CHILD” ETALON**

Nurdinbayeva Nargizaxon Maxammadjon qizi

Doctoral student at Namangan State University

Gmail: [nnurdinbayeva@gmail.com](mailto:nnurdinbayeva@gmail.com)

**Abstract:** This article discusses the semantic analysis of similes with the “child” etalon. Similes with the “child” etalon reflect a national-cultural connotation. Most of these similes belong to the type of free (individual) similes, which are considered an artistic invention of writers. In a literary text, the writer creates free similes to express his feelings and goals.

**Keywords:** *anthropocentric linguistics, analogy, child, etalon, free analogy, personal relationship.*

### KIRISH.

XXI asr boshlarida sistem-struktur tilshunoslik zamin hozirlab bergan lingvistik jarayonlarda antropotsentrik tilshunoslik yoki neolingvistika deb nomlanuvchi, tilshunoslik tarixida alohida burilish hosil qilgan paradigma maydonga keldi. Bunday lingvistikaning rivoji jahonda gumanitar fanlarda diskursiv burilish deb nomlangan davrga to‘g‘ri keldi. Tilshunoslik ilmiy paradigmasiga “til shaxsi” kategoriyasining kiritilishi ilgari tilshunoslik nazaridan chetda qolgan, lekin tilshunoslikka yaqin bo‘lgan fanlarda qo‘llanilgan shaxs, ong, tafakkur, xulq, vaziyat singari tushunchalarning o‘zlashtirilishiga olib keldi [1: 93].

Antropotsentrik paradigma psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, tarix, tibbiyot, madaniyatshunoslik va ko‘plab fanlar bilan o‘z tadqiqot masalalariga chuqurroq yondashishda, til haqida bilimlar va nazariyalarni boyitishida eng innovatsion usullar bilan ish yuritish uchun, o‘z yutuqlari va istiqbollarini asosli dadillash uchun birgalikda ishlaydi. Antropotsentrik tilshunoslik til egasi tadqiqi bilan bog‘liqdir, chunki inson – til, madaniyat, tafakkur masalalarida asosiy o‘rinda turuvchi, uni shakllantiruvchi negizdir. Ayniqsa, badiiy matnlarning yozuvchilar asarlarida obrazlarning ta’sirchanligi va ifodaviylikni ta’minlashda o‘xshatish, jonlantirish, bo‘rttirib tasvirlash, metofora kabi vositalardan foydalanishadi. Bu o‘rinda o‘xshatishning roli katta.

### ADABIYOTLAR TAHLILI.

O'xshatishlar haqida dastlabki ma'lumotlar yunon faylasufi Aristotelning "Poetika" asarida uchraydi. O'zbek tilshunosligida M.Mukarramov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, M.Yoqubbekova kabi olimlar va yosh tadqiqotchilar F.Usmanov, A.Ixtiyorov, S.Babanazarova, Jo Min Yong, M.Abdujalilov, Z.Umarqulov, Z.Mamajonov, A.Axmedova, I.Kazakov va boshqalarning ishlarida o'xshatishlarning semantik-grammatik, leksik-semantik, lingvomadaniy tahlili masalalarini yoritishgan.

M.Mukarramov "O'zbek tilida o'xshatishlar" tadqiqotida o'xshatishda uch komponent – o'xshatiluvchi obyekt, o'xshovchi obraz va o'xshatma belgi leksik birliklar bilan ifodalansa, to'liq sanalishini yozadi [3: 7]. Muallif o'xshatishning sifatlash, metafora, metonimiya, mubolag'a, sifatlash, aforizm, maqol va topishmoq bilan ichki aloqadorligi va farqlarini ko'rsatib beradi.

M.Umurzaqova doktorlik dissertatsiyasida o'xshatishlar lisoniy shaxs milliy-madaniy mansubligini ifodalovchi vosita sifatida tadqiq etilib, o'xshatishlar lisoniy shaxsning individual xususiyatlarini, shaxs sifatida boshqalardan farqli jihatlarini, voqelikka, borliqqa nisbatan subyektiv bahosini ifodalashda muhim vosita sanalishiga alohida e'tibor qaratilgan [4: 27].

Professor N.Mahmudov obrazli tafakkur mahsuli hisoblanuvchi turg'un o'xshatishlarning o'zbek tilida o'rganilishi, erkin va turg'un o'xshatishlarning aniq chegarasini belgilash, o'xshatishlarning semantik-struktur tuzilishlari hamda qiyoslashning dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri ekanligi maqolasida tavsiflagan. Olimning yozishicha, qiyoslash bilingan narsa-xususiyat vositasida bilinmagan narsa-xususiyatni osonlik bilan bilish imkoniyatini beradi [5: 19] Darhaqiqat, qiyoslash orqali narsa-hodisalarning mohiyati osonlik bilan tushuniladi va emotsional-ekspressivlik, ifodaviylik ta'minlanadi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Badiiy matnlarda sermahsul tasvir vositalardan biri sanaluvchi "*bola*" etalonli o'xshatishlarning semantik xususiyatlarini aniqlashda analiz, lingvomadaniy, komponent, qiyoslash, tasniflash va tavsiflash tahlil usullaridan

foydalanildi, chunki insonlarning tashqi ko‘rinishi, turli vaziyatlardagi harakat-ho‘latlari, ruhiy kechinmalari, tabiat tasvirlarini obrazli tasvirlashda o‘rni kattadir.

### **TAHLILLAR VA NATIJALAR.**

O‘xshatish usulini qo‘llash narsa, belgi, voqealarning shunchaki o‘xshashligini ko‘rsatib, ma’lum darajada badiiylikka erishishgina emas, shu bilan birga o‘zi tasvirlayotgan voqea, hodisa, belgining muhim tomonlarini alohida ta’kidlash, unga tinglovchi diqqatini jalb qilishdir [2: 31].

N.Mahmudov o‘xshatishlarning ikki turini, ya’ni: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlarni farqlaydi [5: 20].

Badiiy matnda yozuvchi o‘zining his-tuyg‘u va maqsadlarini ifodalash uchun erkin o‘xshatishlarni yaratadi va ularni kitobxonning e’tiborini tortish yoki asarning badiiy qimmatini oshirishda foydalanadi.

O‘xshatishning eng asosiy qismlaridan biri *etalon* sanaladi. D.Xudoyberganova ta’kidlaganidek, o‘xshatish uchun etalon sifatida tanlangan so‘zlar ham o‘zbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi til birligidir [6: 95].

*Etalon* biror shaxs yoki narsani boshqa bir shaxs yoki narsaga qiyoslash uchun tanlangan nisbatan barqaror, milliy-etnik xususiyatga ega bo‘lgan namunaviy obraz. Etalonlar ko‘proq turg‘un o‘xshatishlar tarkibida mavjud bo‘ladi. Masalan, chiroyli ko‘z o‘zbek tilida ohuning, qozoq tilida bo‘taloqning, qirg‘iz tilida sigirning ko‘ziga o‘xshatilsa, rus tilida smorodina, oyna, osmon kabilarga qiyoslanadi [7: 23].

“O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da “*bola*” etalonli o‘xshatishlarning katta yoshdagi odamlarga nisbatan yettita konnotativ ma’nosini izohlangan [8: 45-48]

Tadqiqotchi F.Usmanov dissertatsiyasida “*bola*” etaloni orqali insonning harakat, xususiyat va harakatlarini ifodalash mumkinligini yozadi [9: 83]. Maqolamizda mazkur fikrlarga qo‘shimcha tarzda “*bola*” etalonli o‘xshatishlar turli konnotativ ma’nosini izohladik.

Badiiy matnlarda “*bola*” etalonli o‘xshatishlar insonlarning shaxsiy kechinma va emotsiyalarini, ruhiy holatlarini hamda jismoniy harakatlarini ifodalaydi:

“*xursand*”, “*quvonch*”: Nishonboy aka *bolalarday* quvonib ketdi. (G‘.G‘ulom. “Soat”) Nizomjon *ayasidan hayitli olgan boladek* dikonglab kunni kechirdi. (S.Ahmad. “Ufq”) Xolmatjon onasidan *hayitlik tanga olgan boladek* ko‘chaga otildi. (S.Ahmad, “Ufq”)

Matnda *ayasidan hayitli olgan boladek // hayitlik tanga olgan boladek* o‘xshatish qurilmasiga *hayit* geortonimi bola etalonining aniqlovchisi bo‘lib kelgan va ikkala variantda ham “*xursandlik*” semasi voqelantirgan.

“*hushyor bo‘lmoq*”, “*sergak bo‘lmoq*”: Tojiboy *tilini tishlab olgan boladek* hushyor tortib ketdi. (S.Ahmad. “Muhabbat”) Alimardon mashinani yeldirib borarkan, *raqibining birinchi bo‘lib musht tushirishini kutib turgan boladek* sergaklanib, uning gap boshlashini kutar edi. (O‘.Hoshimov. “Bahor qaytmaydi”)

“*hasrat*”: Yuragida hasrat qaynab ketdi. Bu – umr tongini sog‘inish edi, *chaqaloq onasining qo‘lida turib, to‘lin oyga qo‘l uzatgani kabi*, behuda, lekin ma’nodor hasrat edi. (Oybek. “Navoiy”)

“*dovdiramoq*”, “*xijolat bo‘lmoq*”: Komiljon uning orqasidan xuddi *gunoh ish qilib qo‘ygan boladek* dovdirab borardi. (S.Ahmad. “Oriyat”) Odatda, bolalar biror ayb ish qilsa, kalovlanib, garangsib qoladi. Bu qo‘rquv va o‘ziga ishonchsizlikdandir. Kattalarga nisbatan qo‘llanuvchi *gunoh ish qilib qo‘ygan boladek* murakkab tuzilmali o‘xshatish vaziyatni aniqroq ifodalaydi.

Boshqa bir misolda ham kattalarning xatti-harakatlarini kitobxonga yetkazib berish uchun *muallimning to‘satdan bergan savoli qarshisida dovdiragan bola kabi* o‘xshatishi orqali ochib berilgan:

Menmi? – *Muallimning to‘satdan bergan savoli qarshisida dovdiragan bola kabi* taraddudlanib, javob berishga urindi Abdishukur, – menmi? (Oybek. “Qutlug‘ qon”)

Mamag‘voy *jo‘ja o‘g‘irlab qo‘lga tushgan boladay* o‘ng‘aysizlandi. (G‘.G‘ulom. “Mamag‘voy tushundi”) *O‘ng‘aysiz* xijolatga soladigan; xijolatli, noqulay (O‘TIL.VI.417) ma’nolariga ega bo‘lib, xijolat bo‘lmoq ma’nosini anglatuvchi *o‘ng‘aysizlanmoq* fe’li yasalgan. Aynan shu ma’noni ifodalashda bolalarning ko‘p holatlarda uchraydigan xatti-harakatidan foydalanilgan. Bolalar yoshligida juda ham bebosh bo‘lishadi. Ko‘pincha o‘g‘irlik, chaqimchilik kabi nomaqbul holatlarni sodir qilishadi. Hikoyada Mamag‘voyning noqulay ahvolga tushganligini *jo‘ja o‘g‘irlab qo‘lga tushgan boladay* o‘xshatishi orqali ifodalangan.

“*ermak qilish*”:

Quvonchi uzoqqa cho‘zilmabdi-da, endi mani xizmatkorlikka chaqirib, *go‘dak boladay* o‘ynatmoqchi. (Oybek. “Qutlug‘ qon”) Fazliddin bizni *yosh bolachasiga* ermak qilib kuldi. (S.Ahmad. “Tog‘larda”)

Misollarda shaxslarning ermak qilinishi *go‘dak boladay o‘ynatish, yosh bolachasiga ermak qilmoq* birikmalari orqali ochib berilgan. Bolalarni aldash, ularni ovutish juda ham oson, chunki bolalar ishonuvchan va hamma narsaga ko‘nuvchan bo‘ladi. Endi shu shu holatlar kattalarga nisbatan qo‘llanganda ularning ishonuvchanliklari yoki kunuvchanliklariga urg‘u berilmaydi. Bu o‘rinda ularga nisbatan keskin kesatiq, zaharxanda kulgi aks etadi.

### **XULOSALAR.**

“Bola” etalonli o‘xshatishlardan foydalanishda yozuvchi o‘zining kuzatuvchanlik, sergaklik, bolaning bevosita tabiati va xarakterini biluvchi ekanligini ko‘rsatadi, chunki tadqiqotchi H.Shamsiddinov ta’kidlaganidek, o‘xshatish insonning xotira va xayol tasavvurlari ishtirokida yuzaga keladi. O‘xshatishlar orqali asarlarni o‘qilishi va ifodaviyliligi oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

### **ADABIYOTLAR.**

1. Нурмонов А. Танланган асарлар 3 жилдлик. – Тошкент: Akademnashr, 2012. 3-ж. – 276 б.

2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули / Монография. – Тошкент: Фан, 1987. – 87б.
3. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – 45б.
4. Umurzaqova M. Badiiy matnda lisoniy shaxs voqelanishining sotsiopragmatik va lingvomadaniy aspekti: Filol.fan.d-ri. (DSc). ... diss.avtroref. – Toshkent, 2024. – 70b.
5. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011. №3. – 19-23б.
6. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи / Монография. – Тошкент: Фан, 2013. – 136б.
7. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 112b.
8. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.
9. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.фалсафа.д-ри. (PhD) ... дисс. – Тошкент: 2020. – 173б.